V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SAFAROV JO‘RABEK SHAKAROVICH

YOPISHQOQLIK-ELASTIKLIK NAZARIYASI DIFFERENSIAL TENGLAMALARI UCHUN TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika (fizika – matematika fanlari)

FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

UDK: 517.958

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the of Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SAFAROV JO‘RABEK SHAKAROVICH

YOPISHQOQLIK-ELASTIKLIK NAZARIYASI DIFFERENSIAL TENGLAMALARI UCHUN TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika (fizika – matematika fanlari)

FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/FM232 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Dissertatsiya V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Taxirov Jozil Ostanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Hasanov Aknazar Bekdurdiyevich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xolmuxamedov Olimjon Raximovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**RFA Vladikavkaz ilmiy markazi Janubiy matematika instituti (Rossiya Federatsiyasi)**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 9 » yanvar soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.:(+99871)- 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (№ 173-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.:(+99871) 207-91-40)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 20 » dekabr kuni tarqatildi.

(2023 yil « 20 » dekabrdagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.- m.f.d., katta ilmiy xodim

A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global miqyosda olib borilgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar differensial tenglamalar yoki differensial tenglamalar sistemasi uchun teskari masalalarni o‘rganishga olib keladi. Tabiiy fanlarda ba’zi jarayonlarni matematik modellashtirishda xotiraga ega deb ataladigan sistemalarga duch kelinadiki, ularning hatti-harakati jarayonning butun tarixiga bog‘liq va shuning uchun chiziqli bo‘lmagan integro-differensial tenglamalar bilan tavsiflanadi. Bunday jarayonlar sodir bo‘ladigan muhit keyingi ta’sirga ega yoki xotirali muhit deb ataladi. Elastik, elektromagnitik va akustik to‘lqinlarning tarqalishi masalalari bunday tenglamalarga olib keladi. Giperbolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun teskari masalalar matematik fizikaning teskari masalalari nazariyasida o‘tgan asrning 90-yillari boshida paydo bo‘lgan, nisbatan yangi va tez rivojlanayotgan muhim yo‘nalishlaridandir. Bunday masalalarni hal qilish usullari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi sababli, ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyoda ko‘plab mutaxassislar giperbolik va parabolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun bir va ko‘p o‘zgaruvchili teskari masalalarni yechish bilan mashg‘ul. Shuni ta’kidlash joizki, bu masalalarning juda ko‘pchiligi fizik ma’noga ega bo‘lib, konkret jarayonlarni ifodalaydi. Integro-differensial tenglamalar uchun teskari masalalar integral operator yadrosini to‘lqin maydoni haqidagi biror bir qo‘shimcha ma’lumot asosida tadqiq etish jarayon yuz berayotgan muhit tuzilishi va xususiyatlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Qo‘shimcha ma’lumot sifatida odatda butun vaqt intervali uchun to‘g‘ri masala yechimining sohaning biror nuqtasidagi qiymati olinadi. Amaliy masalalarda muhitning biror bir nuqtasi atrofida yoki muhit chegarasida berilgan delta–funksiya shaklidagi manbalar muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqqa ega bo‘lgan differensial tenglamalar va matematik fizikaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi, xususan, yopishqoq-elastik muhitlarda elektromagnitik hamda akustik to‘lqinlar tarqalish masalalariga e’tibor qaratildi. Qaralayotgan muhitlarda yuqoridagi masalalarning lokal yoki global yechimlarini topish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Algebra va matematik analiz, dinamik tizimlar nazariyasi, differensial tenglamalar va matematik fizika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik moddellashtirish fanlarining ustivor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1].

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot obyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4979-son Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematik ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, Fanlar Akademiyasi V.I.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-son qarori

Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-sonli va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Integro-differensial tenglamalar va tenglamalar sistemalari integral hadi yadrosini va koeffitsiyentlarini aniqlashga bag‘ishlangan teskari masalalarni ilmiy tadqiq qilish va ularni shartli turg‘unlikka tekshirish jahonning yirik ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan: Tallin texnologiyalar universiteti (Estoniya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Novosibirsk davlat universiteti (Rossiya), Sibir federal universiteti (Rossiya), Vladikavkaz ilmiy markazi (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo‘limi Hisoblash matematikasi va matematik geofizika instituti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo‘limining S.L. Sobolev nomidagi Matematika instituti (Rossiya), Wichita State University (AQSh), Yaqin Sharq universiteti (Turkiya), Myunxen texnika universiteti (Germaniya), Radboud universiteti (Niderlandiya), Frayberg texnika universiteti (Germaniya), Universite di Bolonya (Italiya), Alyaska universiteti (AQSh) va boshqa joylarda olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida giperbolik tipdagi integro-differensial tenglamalar va tenglamalar sistemalari uchun bir o‘lchovli hamda ko‘p o‘lchovli teskari masalalar tadqiqi bo‘yicha bir qator natijalar qo‘lga kiritildi, xususan, quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: chegaralangan sohalarda taqsimlangan manbali to‘lqin tarqalish jarayonlari uchun qovishqoq-elastiklik va termo qovishqoq-elastiklik tenglamalarining yadrolarini aniqlash masalalari hal etildi (Tallin texnologiya universiteti); yarim fazoda jamlangan manbali to‘lqin tenglamasi uchun tenglamalar koeffitsiyentlari va maxsus ko‘rinishga ega ko‘p o‘lchovli yadrolarni aniqlash bo‘yicha teskari masalalar hal qilindi (Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo‘limi S.L. Sobolev nomidagi Matematika instituti); statsionar elastiklik tenglamalari sistemasi uchun tarqalgan to‘lqindan foydalanib o‘zgarmas Lame koeffitsiyentlariga ega va fazoviy o‘zgaruvchilarga hamda chastotaga bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchan matritsali koeffitsiyentlar qatnashgan yadro va koeffitsiyentlarni aniqlashning teskari masalalari o‘rganildi (Vichita davlat universiteti); qovushqoqlik-elastiklik nazariyasi ko‘p o‘lchovli yadrolarini aniqlash masalalari o‘rganildi (Vladikavkaz ilmiy markazi); Abel yadrolarining chiziqli kombinatsiyasini hosil qiluvchi relaksatsiya yadrosini ikki chegaradagi o’lchashlar natijasiga ko‘ra aniqlashdan iborat teskari masalasi hal qilindi (Alyaska universiteti).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Odatda teskari masalalar kuzatish natijalarining interpretatsiyasi sifatida paydo bo‘ladi. Giperbolik tipdagi tenglamalar uchun teskari masalalar matematik fizikaning nokorrekt masalalari jumlasidandir. Nokorrekt masalalarni yechishga umumiy yondashish A.N. Tixonov tomonidan ishlab chiqilgan hamda V.Y. Arsenin, M.M. Lavrentev, V.A. Morozov va boshqalarning ishlarida rivojlantirilgan. Teskari masalalar va Volterra tenglamalari orasidagi bog‘lanishdan teskari masalalar nazariyasining ilk ishlaridayoq foydalanishgan. Bu sohadagi asosiy natijalar bilan V.G. Romanov, S.I. Kabanixin, V.G. Yaxno, A.L. Buxgeymlarning monografiyalarida tanishish mumkin. Ko‘p o‘zgaruvchili teskari masalalarni yechish usullari V.G. Romanov ishlarida bayon qilingan, xususan u analitik funksiyalar Banax fazosi shkalalari usulini ko‘p o‘zgaruvchili teskari masalalarni yechishga qo‘llagan**.**

Integro-differensial tenglamalar uchun teskari masalalar nazariyasidagi ilk natijalar italiyalik matematik A. Lorensining ishlarida bayon qilingan. U giperbolik va parabolik tiplardagi integro-differensial tenglamalar uchun *x* fazoviy o‘zgaruvchi bo‘yicha cheksiz sohada taqsimlangan manbadan iborat boshlang‘ich berilganlar uchun teskari masalalarni tadqiq etgan. M. Grasseli, S.I. Kabanixin, A.L. Buxgeym, N.I. Kalininalar tomonidan *x* o‘zgaruvchi bo‘yicha chekli sohada taqsimlangan boshlang‘ich berilganlar bilan gipebolik va parabolik tiplardagi integro-differensial tenglamalar integral hadi bir o‘lchovli yadrosini aniqlash masalasi o‘rganilgan. Ya. Yanno va L. Volversdorflar tomonidan *x* o‘zgaruvchi bo‘yicha cheksiz sohada taqsimlangan boshlang‘ich berilganlar bilan yopishqoqlik-elastiklik tenglamasi tadqiq etilgan. V.G. Romanov tomonidan giperbolik hamda parabolik tipdagi integro-differensial tenglamalarning ko‘p o‘lchovli yadrosi fazoviy qismini hamda tenglamadagi noma’lum koeffitsiyentlarini aniqlashdan iborat bo‘lgan teskari masalalar tadqiq etilgan.

Sh.Yarmuxamedov giperbolik tipdagi tenglamalar uchun nokorrekt masalalarni tadqiq etgan. Parabolik va aralash tipdagi tenglamalar uchun nokorrekt chegaraviy masalalarni o‘rganish K.S. Fayazov tadqiqotlari predmeti bo‘lib xizmat qilmoqda. R.R. Ashurov va uning shogirdlari kasr tartibli hosila qatnashgan differensial tenglamalarda hosila tartibini aniqlash teskari masalalari bilan shug‘ullanishyapti. A.B. Xasanov va uning shogirdlari spektral teskari masalalarini yechish bilan shug‘ullanishmoqda. D.Q. Durdiyev va J.D. Totievalarning yaqinda chop qilingan monografiyasi xotiraga ega muhitlar uchun teskari masalalarni tadqiq etish sohasidagi so‘nggi fundamental ishlardan biri hisoblanadi. Ushbu kitobda xotirali muhitning ichki xususiyatlarini tafsiflashda yuzaga keladigan giperbolik integro-differensial tenglamalar uchun bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli teskari dinamik masalalarning korrektligini tadqiq etish natijalari bayon etilgan; izotrop va anizotrop muhitlar uchun termoelastiklik va elektroelastiklik koeffitsiyentlari aniqlangan. Qo‘yilgan teskari masalalarning yagona yechimi mavjudligi haqidagi teoremalar isbotlangan va bu masalalar yechimlarining berilgan ma’lumotlarga uzluksiz bog‘liqligi uchun turg‘unlik baholari olingan. Bugungi kunda bu mavzu ko‘plab matematiklarning ilmiy qiziqishlari predmeti bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Matematika institutining OT-F4-88 «Ikkinchi va yuqori tartibli aralash tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar tadqiqi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yopishqoq-elastik muhitlarda giperbolik tipdagi tenglamalar uchun teskari masalalarni yechish usullarini qurish hamda ushbu teskari masalalar uchun yechimlarning mavjud, yagona va turg'unligini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan integro-differensial to'lqin tenglamasining xotira yadrosini aniqlash teskari masalalarining global yagona yechiluvchanligini va turg'unligini tadqiq etish;

yopishqoqlik-elastiklik nazariyasi integro-differensial tenglamasi hamda yopishqoqlikka ega akustika tenglamasi uchun teskari masalalarning global yagona yechiluvchanligini tadqiq etish;

turli chekli sohalarda bir jinsli bo'lmagan integro-differensial tenglamalar uchun to'g'ri va integral hadining yadrosini aniqlashga doir teskari masalalarning bir qiymatli yechiluvchanligini tadqiq etish;

integral had yadrosi fazoviy o'zgaruvchiga kuchsiz bog'liq bo'lgan hollarda yopishqoqlik- elastiklik nazariyasi tenglamalari uchun ikki o'lchovli teskari masalalarni tadqiq etish;

taqsimlangan va umumlashgan boshlang'ich manbalarga ega bo'lgan yopishqoqlik-elastiklik tenglamalari uchun ko'p o'lchovli teskari masalalarning lokal bir qiymatli yechlishi va turg'unligini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti giperbolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun bir va ko'p o'lchovli teskari masalalar, matematik fizika tenglamalari, integral va operatorli tenglamalar nazariyalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti yopishqoqlik-elastiklik nazariyasi integro-differensial tenglamalari uchun teskari masalalar.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz usullari, differensial tenglamalar va matematik fizika masalalarini yechish usullari, funksional analiz hamda umumlashgan funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan integro-differensial to'lqin tenglamasining xotira yadrosini aniqlash teskari masalalarining global yagona yechiluvchanligi isbotlangan va turg'unlik baholari olingan;

yopishqoqlik-elastiklik nazariyasi integro-differensial tenglamasi hamda yopishqoqlikka ega akustika tenglamasi uchun teskari masalalarning global yagona yechiluvchanligi isbotlangan;

turli chekli sohalarda bir jinsli bo'lmagan integro-differensial tenglamalar uchun to'g'ri va integral hadining yadrosini aniqlashga doir teskari masalalarning bir qiymatli yechiluvchanligi isbotlangan;

integral had yadrosi fazoviy o‘zgaruvchilardan biriga kuchsiz bog‘liq bo‘lgan holda yopishqoqlik-elastiklik tenglamalari uchun teskari masalalarning global bir qiymali yechlishi isbotlangan va shartli turg‘unlik baholari olingan;

taqsimlangan va umumlashgan boshlang‘ich manbalarga ega bo‘lgan yopishqoqlik-elastiklik tenglamalari uchun ko‘p o‘lchovli teskari masalalarning lokal bir qiymatli yechlishi isbotlangan va shartli turg‘unlik baholari olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishida olingan natijalar fundamental hisoblanadi. Olingan natijalardan hisoblash algoritmlari qurishda, geofizika va seysmorazvedkada muhitlarning xossalarini akustik to‘lqinlar yordamida tadqiq etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalar va xulosalarning ishonchliligi matematik va funksional analiz, teskari masalalar nazariyasi, differensial tenglamalar va matematik fizika hamda qattiq jismlar mexanikasi usullardan qat’iy foydalanish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xotiraga ega bo‘lgan yopishqoq-elastiklik muhitlarda integro-differensial tenglamalar uchun bir o‘lchovli hamda ko‘p o‘lchovli teskari masalalar nazariyasini rivojlantirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning geofizik va seysmik kuzatishlar modellariga, yopishqoq-elastik muhitlarda elektromagnitik, akustik hamda boshqa to‘lqinlar tarqalishini tadqiq etishga qo‘llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yopishqoqlik-elastiklik nazariyasi differensial tenglamalari uchun teskari masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

umumlashgan boshlangich manbalarga ega bo‘lgan yopishqoqlik-elastiklik tenglamalari uchun ko‘p o‘lchovli teskari masalalarning lokal bir qiymatli yechlishi va shartli turg‘unlik baholaridan 122041100096-4 raqamli “Sotsiologiya, geofizika va muhandislik fanlarida matematik modellashtirish” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida izotrop yopisqoqlik-elastiklik tenglamalari uchun ko‘p o‘lchovli teskari masalalarni yechishda foydalanilgan (RFA Vladikavkaz ilmiy markazi Janubiy matematika institutining 2023 yil 8-noyabrdagi №85-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi yopishqoq elastik muhit asosiy xarateristikalarini aniqlash sonli algoritmini ishlab chiqish imkonini bergan;

yopishqoqlik-elastiklik tenglamalari integral hadi yadrosini aniqlash uchun taklif etilgan usuldan OT-Ф-4-(36+32) raqamli “Matematik fizika va optimal boshqaruv masalalari yechishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish. Toq tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun noklassik boshlang‘ich va spektral masalalar va ularning tatbiqlari” mavzudagi fundamental loyihada uchinchi tartibli tenglama uchun nolokal masala yechimi mavjudligini ko‘rsatishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 15-noyabrdagi №04/11-7752-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi natijasida nolokal masala bir qiymatli yechimga ega ekanligin isbotlashni va yechimning integral ifodasini olish imkonini bergan;

integro-differensial to‘lqin tenglamasining xotira yadrosini aniqlashga oid teskari masalasining global yagona yechiluvchanligi haqidagi teoremadan OT-F4-02 raqamli “Matematik fizikaning holatlar to‘plami cheksiz bo‘lgan modellari termodinamikasi” mavzusidagi fundamental loyihada irsiy elastiklik dinamik tenglamalar sistemasidan xotira funksiyalarini aniqlashda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023 yil 11-noyabrdagi №04/4360-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi xotira funksiyasini topish teskari masalasini bir qiymatli yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 10 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 31 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 16 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 10 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 175 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Giperbolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun bir o‘lchovli teskari masalalar»** deb ataladi. Bu bobning birinchi paragrafida asosiy tushunchalar va dissertatsiyada olingan natijalarni isbotlashda foydalanilgan ma’lum teoremalar keltirilgan. Birinchi bobning ikkinchi paragrafida x o‘zgaruvchi bo‘yicha chekli $D=\{(x,\ t):\ 0<x<l,\ t>0\}$ sohada ushbu integro-differensial tenglama

$$u_{tt}-u_{xx}=\int_0^t k(\alpha)u(x,t-\alpha)d\alpha,\qquad (x,t)\in D \tag{1}$$

quyidagi boshlang‘ich

$$u|_{t=0}=0,\qquad u_t|_{t=0}=0, \tag{2}$$

va chegaraviy

$$u_x|_{x=0}=\psi(t),\qquad u_x|_{x=l}=0,\qquad t>0, \tag{3}$$

shartlar bilan qaralgan. Bu yerda $\psi(t)-$ berilgan funksiya; $l>0-$ biror-bir tayin haqiqiy son.

Teskari masala (1) integro-differensial tenglama integral hadining yadrosi $k(t)$ $(t>0)$ ni $(1)-(3)$ to‘g‘ri masala yechimi haqidagi ushbu

$$u(0,t)=f(t), \qquad t\geq 0 \tag{4}$$

qo‘shimcha ma’lumot boyisha aniqlashdan iborat. Bu yerda $f(t)-$berilgan funksiya.

Avvalo $(1)-(3)$ to‘g‘ri masala tadqiq etiladi, bunda $k(t)$ funksiya ma’lum deb faraz qilinadi. Ushbu masalani D_1 va D_2 sohalarning birlashmasidan tashkil topgan $D^*=D_1\cup D_2$ sohada ($D^*=\{(x,t):0<x<l,0<t<2l-x\}$) ko‘rib chiqamiz:

$$D_1=\{(x,t):0<x<l,0<t<x\},$$
$$D_2=\{(x,t):0<x<l,x<t<2l-x\}.$$

1-Lemma. *Berilgan (2) boshlang‘ich va (3) chegaraviy shaitlarda (1) tenglamaning yechimi D_1 sohada aynan nolga teng, ya’ni $u(x,t)\equiv 0$, D_2 sohada quyidagi integral tenglamani qanoatlantiradi:*

$$u(x,t)=-\varphi(t-x)-\int_0^{t-x}\int_0^{\frac{\tau}{2}}\int_0^{\tau-2\xi}k(\alpha)u(\xi,-\xi+\tau-\alpha)d\alpha d\xi d\tau-$$
$$-\int_{t-x}^{t}\int_{\tau-t+x}^{\frac{2\tau-t+x}{2}}\int_0^{-2\xi+2\tau-t+x}k(\alpha)u(\xi,-\xi+2\tau-t+x-\alpha)d\alpha d\xi d\tau,$$

bu yerda $\varphi(t)=\int_0^t\psi(\tau)d\tau.$

Quyidagi teoremalar isbotlangan.

1-Teorema. *Ushbu* $\psi(t)\in C^3[0,2l]$, $f(t)\in C^4[0,2l]$, $f(0)=0$, $f'(0)=\psi(0)$, $f''(0)=\psi'(0)$, $f'''(0)=\psi''(0)$, $\psi(0)\neq 0$ *shartlar bajarilsin, u holda ixtiyoriy* $l>0$ *da,* (1)-(4) *teskari masalaning yechimi mavjud, yagona va* $k(t)\in C[0,2l]$.

Dalamber formulasini qo‘llash orqali *u(x,t)* ga nisbatan integral tenglamani olamiz. Ushbu tenglamani differensiallash va qo‘shimcha shartlardan foydalanish orqali biz noma’lum funksiyalar uchun chiziqli bo‘lmagan tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz. So‘ngra, ushbu sistemaga vaznli normali uzluksiz funksiyalar fazosida qisqartirib akslantirish prinsipi qo‘llaniladi.

Biror $l>0$ da $k_0>0$ *o‘*zgarmas bilan $\|k\|_{C[0,2l]}\leqslant k_0$ shartni qanoatlantiruvchi $k(t)\in C[0,2l]$ funksiyalar to‘plamini $K(k_0)$ deb belgilaylik.

2-Teorema. *Faraz qilaylik, $K(k_0)$ to‘plamga tegishli bo‘lgan $k^1(t)$ va $k^2(t)$ funksiyalar* (1)-(4) *teskari masalaning $\{f^1,\psi^1\}$ va $\{f^2,\psi^2\}$ berilganlarga mos ikkita yechimi bo‘lsin. U holda shunday $C=C(k_0,l)$ musbat soni topiladiki, quyidagi tengsizlik o‘rinli bo‘ladi:*

$$\|k^1(t)-k^2(t)\|_{C[0,2l]}\leqslant C\left\{\|f^1-f^2\|_{C^4[0,2l]}+\|\psi^1-\psi^2\|_{C^3[0,2l]}\right\}.$$

Ushbu paragrafning ikkinchi punktida (1) – (4) teskari masala $\psi(t)=\delta'(t)$ bo‘lgan holatda o‘rganiladi, bu yerda $\delta'(t)-$ Dirakning delta funksiyasi hosilasi.

Teskari masala yechilishi uchun $f(t)$ funksiya $f(t)=-\delta(t)+\theta(t)\tilde{f}(t)$ ko‘rinishgaga ega bo‘lishi kerak, bu yerda $\tilde{f}(t)-$ regulyar funksiya.

Ushbu punktning asosiy natijasi teskari masalaning global bir qiymatli yechilishi haqidagi quyidagi teoremadir:

3-Teorema. *Ushbu* $\tilde{f}(t)\in C^2[0,2l]$, $\tilde{f}(+0)=0$, $\tilde{f}'(+0)=0$ *shartlar bajarilgan bo‘lsin, u holda ixtiyoriy fiksirlangan* $l>0$ *da,* $(1)-(4)$ *teskari masalaning yagona yechimi mavjud va* $k(t)\in C[0,2l]$.

Uchinchi paragrafda giperbolik tipdagi bir jinsli bo‘lmagan integro-differensial tenglamaning yechimi va integral hadi bir o‘lchovli yadrosini to‘g‘ri masalani tashkil etuvchi shartlar va qo‘shimcha ma’lumotga asosan topishdan iborat masala ko‘rib chiqilgan.

Ushbu $\Omega=\{(x,t)\,|\,x\in R,\ t>0\}$ sohada integro-differensial to’lqin tarqalish tenglamasi uchun Koshi masalasi

$$u_{tt}-u_{xx}-\int_0^t h(\alpha)u(x,t-\alpha)d\alpha=f(x,t),\qquad (x,t)\in\Omega, \tag{5}$$

quyidagi boshlang‘ich shartlar

$$u|_{t=0}=a(x),\qquad u_t|_{t=0}=b(x),\qquad x\in R \tag{6}$$

bilan qaralgan. Bu yerda $a(x), b(x)$ va $f(x,t)$ lar berilgan funksiyalar.

Teskari masala quyidagicha qo‘yiladi: $h(t)\in C(t>0)$ funksiyani to‘g‘ri masalaning yechimiga oid quyidagi ma’lumot bo‘yicha topish talab qilinadi:

$$u(0,t)=g_1(t),\qquad u_x(0,t)=g_2(t),\qquad t\geq 0. \tag{7}$$

(5), (6) to‘g‘ri masalani tahlil qilish natijasi quyidagi teoremada bayon qilingan.

4-Теорема. *Ushbu* $h(t)\in C(t\geq 0)$, $a(x)\in C^2(R)$, $b(x)\in C^1(R)$ *va* $f(x,t)\in C^{0,1}_{x,t}(\Omega)$ *shartlar bajarilgan bo‘lsin, u holda (5) tenglamaning (6) shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud, yagona va* $C^2(\Omega)$ *sinfga tegishli bo‘ladi.*

So‘ngra teskari masala o‘rganiladi. Quyidagi teoremalar olingan.

5-Теорема. $a(x)\in C^3(R)$, $b(x)\in C^2(R)$, $f(x,t)\in C^{0,2}_{x,t}(\Omega)$ *bo‘lsin,* $g_1(t)$ *va* $g_2(t)$ *funksiyalar mos ravishda* $C^3[0,T], C^2[0,T]$ *sinflarga tegishli bo‘lsin, bundan tashqari* $a(0)=g_1(0)\neq 0$, $b(0)=g_1'(0)$, $a'(0)=g_2(0)$, $b'(0)=g_2'(0)$, $a''(0)=g_1''(0)$ *shartlar ham bajarilgan bo‘lsin. U holda ixtiyoriy* T *da* $(1)-(3)$ *teskari masalaning yagona yechimi mavjud va* $C[0,T]$ *sinfga tegishli, bu yerda* $T>0-$ *biror haqiqiy son.*

Faraz qilaylik $H(h_0)$ $h(t)\in C[0,T]$, funksiyalarning biror $T>0$ da $h_0>0$ o‘zgarmas bilan $\|h\|_{C[0,T]}\leqslant h_0$ shartni qanoatlantiruvchi to‘plami bo‘lsin. Faqat yuqoridagi indeksi bilan farq qiluvchi ikkita funksiya ayirmasini o‘sha harf bilan ustiga belgi $\sim$ qo‘yish orqali belgilaymiz. Masalan $\tilde{a}:=a^1-a^2$, $\tilde{b}:=b^1-b^2$.

6-Teorema. *Faraz qilaylik,* $H(h_0)$ *to‘plamga tegishli bo‘lgan* $h^1(t)$ *va* $h^2(t)$ *funksiyalar* $(5)-(7)$ *teskari masalaning* $\{a^1,b^1,f^1,g_1^1,g_2^1\}$ *va* $\{a^2,b^2,f^2,g_1^2,g_2^2\}$, *berilganlarga mos ikkita yechimi bo‘lsin. U holda shunday* $C=C(h_0,T)$ *musbat soni topiladiki, quyidagi turg‘unlik bahosi o‘rinli bo‘ladi:*

$$\left\|h^1(t)-h^2(t)\right\|_{C[0,T]}\leqslant C\left(\left\|\tilde g_1\right\|_{C^1[0,T]}+\left\|\tilde g_2\right\|_{C^2[0,T]}+\left\|\tilde a\right\|_{C^3[-T,T]}+\left\|\tilde b\right\|_{C^2[-T,T]}+\left\|\tilde f\right\|_{C^2[\Delta(0,T)]}\right).$$

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida x o‘zgaruvchi bo‘yicha chekli $\Omega=\{(x,t):0<x<l,t\in R\}$ sohada yopishqoqlik-elastiklik tenglamasi

$$u_{tt}-u_{xx}-\int_0^t k(\tau)u_{xx}(x,t-\tau)d\tau=0,\qquad (x,t)\in\Omega, \tag{8}$$

quyidagi boshlang‘ich

$$u|_{t<0}\equiv 0, \tag{9}$$

va chegaraviy

$$u|_{x=0}=\delta(t),\qquad u_x|_{x=l}=0,\qquad t\in R \tag{10}$$

shartlar bilan qaralgan. Teskari masala $k(t),\ t>0,$ noma’lum funksiyani to‘g‘ri masala yechimi haqidagi ushbu

$$u_x(0,t)+\int_0^t k(\tau)u_x(0,t-\tau)d\tau=f(t) \tag{11}$$

qo‘shimcha ma’lumot bo‘yicha aniqlashdan iborat. Bu yerda $f(t)-$ berilgan funksiya, $t>0$.

Dastlab to‘g‘ri masala ko‘rib chiqilgan. Yangi $v(x,t)$ funksiyani quyidagicha kiritamiz:

$$v(x,t):=\left[u(x,t)+\int_0^t k(t-\tau)u(x,\tau)d\tau\right]\exp\left(-k(0)t/2\right).$$

U holda $u(x,t)$ funksiya $v(x,t)$ funksiya orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$u(x,t)=\exp\left(k(0)t/2\right)v(x,t)+\int_0^t h(t-\tau)\exp\left(k(0)\tau/2\right)v(x,\tau)d\tau,$$

bu yerda $h-$quyidagi Volterra integral tenglamasining yechimi:

$$h(t)=-k(t)-\int_0^t k(t-\tau)h(\tau)d\tau,\qquad t>0.$$

$v(x,t)$ funksiyaga nisbatan quyidagi masalaga kelamiz:

$$v_{tt}-v_{xx}+h_0v+\int_0^t H(t-\tau)v(x,\tau)d\tau=0,$$

$$v|_{x=0}=\delta(t)+k(t)\exp\left(h(0)t/2\right)\theta(t),\qquad v_x|_{x=l}=0,$$

$$v|_{t<0}\equiv 0.$$

Qo‘shimcha shart esa $v_x(0,t)=f(t)\exp\left(h(0)t/2\right)$ ko‘rinishni oladi, bu yerda quyidagi belgilashlar kiritilgan:

$$H(t)=h''(t)\exp\left(h(0)t/2\right),\ h_0=h'(0)-\frac{h^2(0)}{4}.$$

Biz $v(x,t)$ funksiyani

$$v(x,t) = \delta(t-x) + \theta(t-x)\tilde{v}(x,t)$$

ko‘rinishda qidiramiz, bu yerda $\tilde{v}(x,t)$- regulyar funksiya. Mos ravishda $f(t)$ funksiya ham

$$f(t) = -\delta'(t) + \frac{h(0)}{2}\delta(t) + \theta(t)\, f_0(t), \tag{12}$$

strukturaga ega bo‘ladi, bu yerda $f_0(t)-$ regulyar funksiya.

Maxsusliklarni ajratib olish usulidan foydalanib, $D_2 := \{(x,t): 0 < x < l,\ x < t < 2l - x\}$ sohada to‘g‘ri masalaning regulyar qismi uchun quyidagi tengliklarni olamiz (D_2 sohada $v(x,t) = \tilde{v}(x,t)$):

$$v_{tt} - v_{xx} + h_0 v + H(t-x) + \int_0^{t-x} H(\tau)v(x,t-\tau)d\tau = 0,$$

$$v\,|_{t=x+0} = -h(0) - \frac{h_0}{2}x,$$

$$v(0,t) = k(t)\exp\left(\frac{h(0)t}{2}\right).$$

Qo‘shimcha shart esa (9) ni hisobga olgan holda quyidagi shaklni oladi:

$$v_x(0,t) = f_0(t)\exp\left(\frac{h(0)t}{2}\right).$$

Teskari masalaning global yagona yechilishi haqidagi quyidagi teorema o‘rinli:

7-Teorema. *Faraz qilaylik $f(t)$ funksiya (12) ko‘rinishga ega hamda $f_0(t) \in C^1[0,2l]$ bo‘lsin, u holda har qanday $l > 0$ da (8)-(11) teskari masalaning yagona yechimi mavjud.*

Ushbu paragrafda akustikaning integro-differensial tenglamasi uchun teskari masala ham ko‘rib chiqilgan. Giperbolik tipdagi integro-differensial tenglama uchun boshlang‘ich chegaraviy masalani qo‘yamiz:

$$\frac{1}{c^2(y)}v_{tt} = T_y - \frac{d\ln\rho(y)}{dy}T, \quad y > 0, \quad t > 0, \tag{13}$$

$$v\,|_{t\le 0} \equiv 0, \qquad T(+0,t) = \delta'(t), \tag{14}$$

bu yerda $c(y) > 0$ – to‘lqin tarqalish tezligi, $\rho(y)$ – muhit zichligi, $v(y,t)$ – akustik bosim, $T(y,t)$ kuchlanish $v(y,t)$ bilan

$$T(y,t) = v_y(y,t) + \int_0^t k(t-\tau)v_y(y,\tau)d\tau,$$

formula orqali bog‘langan.

Teskari masala quyidagi tarzda qo‘yiladi: (13) tenglik tarkibiga oxirgi formula orqali kiruvchi $k(t),\ t>0$ integral had yadrosini, to‘g‘ri masalaning yechimiga oid ushbu qo‘shimcha ma’lumot bo‘yicha topish talab qilinadi:

$$v(+0,t)=g(t),\ t>0. \qquad (15)$$

Yangi o‘zgaruvchi x ni hamda yangi funksiyalarni quyidagicha kiritamiz:

$$x=\varphi(y)=\int_0^y \frac{d\tau}{c(\tau)},\ v(x,t):=v(\varphi^{-1}(x),t),\quad a(x):=c(\varphi^{-1}(x)),\quad b(x):=\rho(\varphi^{-1}(x)).$$

$\varphi^{-1}(x)$ orqali $\varphi(y)$ ga teskari funksiyani belgilaymiz. $c(y)>0,\ \rho(y)>0$ bo‘lsin. Quyidagicha belgilash kiritamiz $T^*:=\int_0^\infty \frac{d\xi}{c(\xi)}$.

8-Теорема. *Faraz qilaylik* $g(t)$ *funksiya* $g(t)=-c(+0)\delta(t)+H(t)g_0(t)$ *ko‘rinishda ifoda qilinsin, bu yerda* $g_0\in C^2[0,T]$ *va* $H(t)$ *- Xevisayd funksiyasi. Undan tashqari,* $(c(y),\rho(y))\in C^3\left[0,\varphi^{-1}(T)\right]$ *bo‘lsin. U holda ixtiyoriy* $T\in(0,T^*)$ *da* $(13)-(15)$ *teskari masalaning yagona yechimi* $k(t)\in C^2[0,T]$ *mavjud.*

Dissertatsiyaning **«Turli chekli sohalarda integro-differensial tenglamalarning bir o‘lchovli yadrosini aniqlash masalalari»** deb nomlangan ikkinchi bobida bosh qismda umumiy tipdagi giperbolik operatorli bir jinsli bo‘lmagan integro-differensial tenglamalar yechimnii va integral had o‘rama ko‘rinishdagi bir o‘lchovli yadrosini topishdan iborat teskari masalalar tadqiq etilgan.

Giperbolik tipdagi bir jinsli bo‘lmagan integro-differensial tenglamani

$$u_{tt}-Lu=\int_0^t k(t-\theta)u(x,\theta)d\theta+g(x,t),\ (x,t)\in Q, \qquad (16)$$

quyidagi boshlang‘ich

$$u|_{t=0}=\varphi(x),\quad u_t|_{t=0}=\psi(x),\quad x\in\overline{\Omega}, \qquad (17)$$

va chegaraviy

$$u(x,t)=0,\qquad (x,t)\in\partial Q, \qquad (18)$$

shartlar bilan qaraymiz. Bu yerda $L=\sum_{i,j=1}^N \frac{\partial}{\partial x_i}\left(a_{ij}(x)\frac{\partial}{\partial x_j}\right)-c(x)-$ tekis o‘lchovli elliptik operator bo‘lib $(N\geq 1)$, uning koeffitsiyentlari quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$a_{ij}=a_{ji}\in C^{1,\gamma}(\Omega),\quad c(x)\in C^{0,\gamma}(\Omega),\quad c(x)\geq 0,\quad x\in\overline{\Omega},$$

$Q:=\Omega\times(0,T]$, $\Omega\subset\mathbb{R}^N-$ yetarlicha silliq chegara $\partial\Omega$ ga ega chekli soha, $\partial Q:=\partial\Omega\times[0,T]$, $\varphi(x)$, $\psi(x)$ и $g(x,t)-$ berilgan funksiyalar. $k(t)$ ma’lum bo‘lganda (16)–(18) masaladan $u(x,t)$ funksiyani topish masalasiga to‘g‘ri masala deyiladi.

2-Ta’rif. *(16)–(18) masalaning klassik yechimi deb shunday* $u(x,t)$ *funksiyaga aytiladiki, agar* u Q *yopiq silindrda ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi bo‘lib,*

(16)–(18) aralash masalaning barcha shartlarini klassik ma'noda qanoatlantirsa.

Teskari masala $k(t),\ t>0,$ noma'lum funksiyani $(16)-(18)$ to'g'ri masala yechimning biror $x_0 \in \Omega$ nuqtadagi qiymati haqidagi ushbu

$$u(x_0,t)=h(t), \qquad 0\le t\le T \tag{19}$$

qo'shimcha ma'lumot bo'yicha aniqlashdan iborat. Bu yerda $h(t)-$ berilgan funksiya.

3-Ta'rif. *(16)–(19) teskari masalaning yechimi deb mos ravishda* $C^2(Q)\cap C^1(\overline{Q})$ *va* $C[0,T]$ *sinflardan bo'lgan, (16)– (19) munosabatlarni qanoatlantiruvchi* $u(x,t)$ *va* $k(t)$ *funksiyalar juftligiga aytiladi.*

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi $D_{Tl}=\Omega_l\times(0,T), \Omega_l=\{(x,y): 0<x<l, 0<y<l\}$ sohada ushbu integro-differensial tenglama

$$u_{tt}-\Delta u=\int_0^t k(\tau)u(x,y,t-\tau)d\tau+g(x,y,t) \tag{20}$$

quyidagi boshlang'ich

$$u|_{t=0}=\varphi(x,y), \qquad u_t|_{t=0}=\psi(x,y), \qquad 0\le x,y\le l \tag{21}$$

va chegaraviy

$$u|_{x=0}=0, \qquad u|_{x=l}=0, \qquad 0\le y\le l, \qquad 0\le t\le T, \tag{22}$$

$$u|_{y=0}=0, \qquad u|_{y=l}=0, \qquad 0\le x\le l, \qquad 0\le t\le T, \tag{23}$$

shartlar bilan qaralgan. Bu yerda $\varphi(x,y)$, $\psi(x,y)$ va $g(x,y,t)-$berilgan funksiyalar.

Teskari masala noma'lum $k(t),(t>0)$ funksiyani, $(20)-(23)$ to'g'ri masala yechimning biror $(x_0,y_0)\in\Omega_l$ nuqtadagi qiymati haqidagi ushbu

$$u(x_0,y_0,t)=h(t), \qquad 0\le t\le T, \tag{24}$$

qo'shimcha ma'lumot bo'yicha aniqlashdan iborat. Bu yerda $h(t)-$ berilgan funksiya.

Quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsin:

$$\lim_{x\to 0+}u_x\sin\lambda_m x=\lim_{x\to l-}u_x\sin\lambda_m x=0, \qquad 0\le y\le l, \qquad 0\le t\le T; \tag{25}$$

$$\lim_{y\to 0+}u_y\sin\lambda_n y=\lim_{y\to l-}u_y\sin\lambda_n y=0, \qquad 0\le x\le l, \qquad 0\le t\le T, \tag{26}$$

bu yerda $\lambda_m=\dfrac{\pi m}{l}, \qquad \lambda_n=\dfrac{\pi n}{l}, \qquad m\in N, n\in N,$ mos spektral masalaning xos sonlari.

9-Teorema. *Agar (20)-(23) masala yechimi mavjud bo'lsa, (25), (26) shartlar bajarilganda u yagona bo'ladi.*

10-Teorema. *Agar* $k(t)\in C[0,T],\ \varphi(x,y)\in C^4(\overline{\Omega_l}),\ \psi(x,y)\in C^3(\overline{\Omega_l})$ *va*

$$\varphi(0,y)=\varphi_{xx}(0,y)=\varphi(l,y)=\varphi_{xx}(l,y),0\le y\le l,$$
$$\psi(0,y)=\psi_{xx}(0,y)=\psi(l,y)=\psi_{xx}(l,y),0\le y\le l,$$
$$\varphi(x,0)=\varphi_{yy}(x,0)=\varphi(x,l)=\varphi_{yy}(x,l),0\le x\le l,$$
$$\psi(x,0)=\psi_{yy}(x,0)=\psi(x,l)=\psi_{yy}(x,l),0\le x\le l,$$
$$g(0,y,t)=g_{xx}(0,y,t)=g(l,y,t)=g_{xx}(l,y,t),\ 0\le y\le l,$$
$$g(x,0,t)=g_{yy}(x,0,t)=g(x,l,t)=g_{yy}(x,l,t),\ 0\le x\le l$$

shartlar bajarilsa, u holda (20)–(23) masalaning yagona yechimi mavjud.

11-Teorema. *Agar* $\varphi(x,y)\in C^5(\overline{\Omega_l}),\quad \psi(x,y)\in C^4(\overline{\Omega_l})$ *va* $g(x,y,t)\in C^{4,0}_{xy,t}(\overline{D}_{Tl})$ *bo'lib,*

$$\varphi(0,y)=\varphi_{xx}(0,y)=\varphi_{xxxx}(0,y)=\varphi(l,y)=\varphi_{xx}(l,y)=\varphi_{xxxx}(l,y),\ 0\le y\le l,$$
$$\varphi(x,0)=\varphi_{yy}(x,0)=\varphi_{yyyy}(x,0)=\varphi(x,l)=\varphi_{yy}(x,l)=\varphi_{yyyy}(x,l),\ 0\le x\le l,$$
$$\psi(0,y)=\psi_{xx}(0,y)=\psi(l,y)=\psi_{xx}(l,y),\ 0\le y\le l,$$
$$\psi(x,0)=\psi_{yy}(x,0)=\psi(x,l)=\psi_{yy}(x,l),\ 0\le x\le l,$$
$$g(0,y,t)=g_{xx}(0,y,t)=g(l,y,t)=g_{xx}(l,y,t),\ 0\le y\le l,$$
$$g(x,0,t)=g_{yy}(x,0,t)=g(x,l,t)=g_{yy}(x,l,t),\ 0\le x\le l,$$
$$h(t)\in C^3[0,T],h(0)=\varphi(x_0,y_0)\ne 0,h'(0)=\psi(x_0,y_0),$$
$$h''(0)=g(0,x_0,y_0)-\lambda^2\Delta\varphi(x_0,y_0),$$

shartlar bajarilsa, u holda ixtiyoriy $T>0$ *da (20)–(24) teskari masalaning yagona yechimi* $k(t)\in C[0,T]$ *mavjud.*

Bu bobning ikkinchi paragrafida $G:=\{(x,y,t):0<r<1,0<t<T\}$, $\left(r=\sqrt{x^2+y^2}\right)$, sohada ushbu integro-differensial tenglama

$$u_{tt}-\Delta u=\int_0^t k(\alpha)u(x,y,t-\alpha)d\alpha+f(r,t), \tag{27}$$

quyidagi boshlang'ich

$$u|_{t=0}=\varphi(r),\qquad u_t|_{t=0}=0,\qquad 0\le x^2+y^2\le 1 \tag{28}$$

va chegaraviy

$$\big((x,y),\nabla u\big)|_{r=0}=0,\qquad u|_{r=1}=0,0\le t\le T, \tag{29}$$

shartlar bilan qaralgan. Bu yerda $\Delta-$ x va y o'zgaruvchilarning Laplas operatori $((x,y),\nabla u)-$ (x,y) va ∇u vektorlarning skalyar ko'paytmasi, $f(r,t)$ va $\varphi(r)$ berilgan, yetarlicha silliq funksiyalar.

Teskari masala $k(t),t>0$ noma'lum funksiyani $(27)-(29)$ to'g'ri masala yechimining biror (x_0,y_0) nuqtadagi qiymati haqidagi ushbu

$$u(x_0,y_0,t)=h(t),\qquad 0<x_0^2+y_0^2<1,\ 0\le t\le T, \tag{30}$$

qo'shimcha ma'lumot bo'yicha aniqlashdan iborat. Bu yerda $h(t)-$ berilgan funksiya.

To'g'ri masalani tadqiq etish uchun qutb koordinatalar sistemasiga o'tamiz:

$$x = r\cos\theta,\ y = r\sin\theta.$$

Bunda biz berilgan masalaning sferik simmetriyaga ega yechimini qidiramiz. Natijada (27)– (30) masala quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} - \frac{1}{r}\frac{\partial u}{\partial r} - \frac{\partial^2 u}{\partial r^2} = \int_0^t k(\alpha)u(r,t-\alpha)d\alpha + f(r,t), \quad (r,t)\in G,$$

$$u|_{t=0} = \varphi(r), \qquad u_t|_{t=0} = 0, \qquad 0 \le r \le 1,$$

$$\lim_{r\to 0}(ru_r) = 0, \qquad u|_{r=1} = 0, \qquad 0 \le t \le T.$$

$$u(r_0,t) = h(t), \qquad r_0 = \sqrt{x_0^2 + y_0^2},\ 0 < r_0 < 1,\ 0 \le t \le T.$$

$C^{m,n}(G)$ —G sohada r bo‘yicha m marta va t bo‘yicha n marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar sinfi bo‘lsin.

12-Teorema. *Agar* $k(t)\in C[0,T]$, $f(r,t)\in C^{4,0}(\overline{G})$, $\varphi(r)\in C^4[0,1]$ *bo‘lsa hamda quyidagi shartlar bajarilsa:*

$$\varphi^{(m)}(0) = 0,\ m = \overline{0,3},\ \varphi^{(m)}(1) = 0, m = \overline{0,2},$$

$$\frac{\partial^m f}{\partial r^m}(0,t) = 0, m = \overline{0,3},\ \frac{\partial^m f}{\partial r^m}(1,t) = 0, m = \overline{0,2},\ t\in[0,T],$$

(27)-(29) to‘g‘ri masalaning yagona yechimi mavjud bo‘ladi.

13-Теорема. *Faraz qilaylik* $h(t)\in C^3[0,T]$, $f(r,t)\in C^{4,1}(\overline{G})$, $\varphi(r)\in C^6[0,1]$, $h(0) = \varphi(r_0) \ne 0$, $h'(0) = 0$, $h''(0) = f(r_0,0) - \lambda^2\Delta\varphi(x_0)$ *bo‘lib, quyidagi shartlar bajarilsin:*

$$\varphi^{(m)}(0) = 0,\ m = \overline{0,5},\ \varphi^{(m)}(1) = 0, m = \overline{0,4},$$

$$\frac{\partial^m f}{\partial r^m}(0,t) = 0, m = \overline{0,3},\ \frac{\partial^m f}{\partial r^m}(1,t) = 0, m = \overline{0,2},\ t\in[0,T].$$

U holda $(27)-(30)$ *teskari masalaning yagona yechimi mavjud bo‘ladi.*

Uchinchi paragrafda (16) - (18) masala tekis elliptik operator L bilan umumiy holatda o‘rganiladi. Furye usuli bilan to‘g‘ri masala ikkinchi turdagi Volltera integral tenglamasini yechishga keltiriladi.

14-Теорема. $k(t)\in C[0,T]$ *bo‘lsin, hamda quyidagi shartlar bajarilsin:*

$1)\ a_{ij}(x)\in C^{\left[\frac{N}{2}\right]+2}(\overline{\Omega}), c(x)\in C^{\left[\frac{N}{2}\right]+1}(\overline{\Omega});$

$2)\ \varphi(x)\in H^{\left[\frac{N}{2}\right]+3}(\Omega), \quad \psi(x)\in H^{\left[\frac{N}{2}\right]+2}(\Omega);$

$3)\ g(\cdot,t)\in H^{\left[\frac{N}{2}\right]+2}(\Omega), \quad g(x,\cdot)\in C[0,T];$

$4)\ \varphi, L\varphi, ..., L^{\left[\frac{N+4}{4}\right]}\varphi \in H_0^1(\Omega), \quad \psi, L\psi, ..., L^{\left[\frac{N+2}{4}\right]}\psi \in H_0^1(\Omega);$

$5)\ g(\cdot,t), Lg(\cdot,t), ..., L^{\left[\frac{N+2}{4}\right]}g(\cdot,t)\in H_0^1(\Omega).$

U holda (16)-(18) masalaning yagona klassik ma’nodagi yechimi mavjud.

Teskari masalani tadqiq etishda $k(t)$ funksiya uchun quyidagi integral tenglamani olamiz:

$$k(t)=\frac{1}{h(0)}[h'''(t)-F'''(t)-\int_0^t k(s)M'''[k](t-s)ds],\ t\in[0,T]. \qquad (31)$$

bu yerda $M'''[k](t)=h'(t)-\sum_{m=1}^{\infty}\lambda_m^2 v_m(x_0)\int_0^t A_m(\theta)\cos\lambda_m(t-\theta)d\theta.$

15-Teopema. $h(t)\in C^3[0,T]$ *bo'lsin, hamda quyidagi shartlar bajarilsin:*

$1)\ \varphi(x)\in H^{\left[\frac{N}{2}\right]+7}(\Omega),\ \psi(x)\in H^{\left[\frac{N}{2}\right]+5}(\Omega),\ g(\cdot,t)\in H^{\left[\frac{N}{2}\right]+5}(\Omega),\quad g(x,\cdot)\in C[0,T];$

$2)\ \varphi, L\varphi,...,L^{\left[\frac{N+4}{4}\right]+3}\varphi\in H_0^1(\Omega),\quad \psi, L\psi,...,L^{\left[\frac{N+6}{4}\right]}\psi\in H_0^1(\Omega);$

$3)\ g(\cdot,t), Lg(\cdot,t),...,L^{\left[\frac{N+6}{4}\right]}g(\cdot,t)\in H_0^1(\Omega);$

$4)\ h(0)=\varphi(x_0),\ h'(0)=\psi(x_0),\ h''(0)=g\ (x_0 0)-\lambda^2 L\varphi(x_0).$

U holda (16) – (19) *teskari masalaning (31) tenglamani qanoatlantiruvchi yagona yechimi mavjud bo'ladi.*

Faraz qilaylik $K(k_0)$ $k(t)\in C[0,T]$ funksiyalarning biror $t\in[0,T]$ da $k_0>0$ o'zgarmas bilan $\|k(t)\|_{C[0,T]}\le k^0$ shartni qanoatlantiruvchi to'plami bo'lsin.

16-Teorema. *15-teorema shartlari bajarilgan bo'lsin hamda* $k^1(t)\in K(k_0), k^2(t)\in K(k_0)-$ *(16)–(19) teskari masalaning* $\{\varphi^1,\psi^1,g^1,h^1\}$ *va* $\{\varphi^2,\psi^2,g^2,h^2\}$ *berilganlarga mos ikkita yechimi bo'lsin. U holda shunday* $C=C(k^0,T)-$ *musbat soni topiladiki, quyidagi tengsizlik o'rinli bo'ladi:*

$$\|k^1-k^2\|_{C[0,T]}\le C\left(\|\tilde{\varphi}\|_{H^{\left[\frac{N}{2}\right]+7}(\Omega)}+\|\tilde{\psi}\|_{H^{\left[\frac{N}{2}\right]+5}(\Omega)}+\|\tilde{g}\|_{H^{\left[\frac{N}{2}\right]+5}(\Omega)\times C[0,T]}+\|\tilde{h}\|_{C^3[0,T]}\right).$$

Ko'p o'lchovli teskari masalalarni yechishda bir necha yondashuvlar mavjud. Bunday usullardan biri masalani bir o'lchovli masalalar seriyasiga keltirib yechishdir. Bunda qidirilayotgan funksiyaga kichik parametr kiritiladi va u o'zgaruvchi bilan ushbu parametr ko'paytmasi bo'yicha darajali qatorga yoyiladi. Yoyilma koeffitsiyentlari (bir o'lchovli funksiyalar) bir o'lchovli masalalar ketma-ketligining yechimlari sifatida aniqlanadi.

"Kuchsiz gorizontal muhitlarda yopishqoqlik-elastiklik tenglamalari ikki o'lchovli yadrosini aniqlash" deb nomlangan uchinchi bobda fazoviy o'zgaruvchilar bo'yicha chekli sohada yopishqoqlik-elastiklik tenglamasi uchun shunga o'xshash masalalar ko'rib chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida quyidagi integro-differensial tenglama

$$u_{tt}=u_{zz}+u_{xx}+\int_0^t k(x,\theta)u(x,z,t-\theta)d\theta,\qquad z\in(0,l),(x,t)\in\mathbb{R}_+^2, \qquad (32)$$

ushbu boshlang'ich

$$u|_{t=0}=0,\qquad u_t|_{t=0}=0, \qquad (33)$$

va chegaraviy

$$u_z|_{z=0}=\delta(x)\delta'(t),\qquad u_z|_{z=l}=0, \qquad (34)$$

shartlar bilan qaralgan. Bu yerda $\mathbb{R}_+^2:=\{(x,t): x\in\mathbb{R},\ t\in(0,\infty)\}$, $\delta(\cdot)$ и $\delta'(\cdot)-$ mos

ravishda Dirakning delta fuksiyasi va uning hosilasi, $l > 0$ - berilgan son.

Teskari masala (32) tenglama integral hadi tarkibiga kiruvchi noma'lum yadro $k(x,t)$ni, (32)–(34) boshlang'ich-chegaraviy masalaning $z = 0$dagi qiymati

$$u(x,0,t) = f(x,t),\ (x,t) \in \mathbb{R}^2_+, \tag{35}$$

bo'yicha aniqlashdan iborat. Bu yerda $f(x,t) -$ berilgan funksiya.

Bunda biz $k(x,t)$yadro gorizontal xo'zgaruvchiga kuchsiz bog'langan deb faraz qilamiz:

$$k(x,t) = k_0(t) + \varepsilon x k_1(t) + O(\varepsilon^2), \tag{36}$$

bu yerda ε – kichik parametr.

(32)–(34) to'g'ri masala yechimini ε bo'yicha darajali qator ko'rinishida qidiramiz:

$$u(x,z,t) = u_0(x,z,t) + \varepsilon u_1(x,z,t) + O(\varepsilon^2). \tag{37}$$

U holda (35) formulani inobatga olsak, $f(x,t)$funksiya ham xuddi shunday ko'rinishga ega bo'lishini anglash qiyin emas:

$$f(x,t) = f_0(x,t) + \varepsilon f_1(x,t) + O(\varepsilon^2). \tag{38}$$

(32)–(35) teskari masala $k_0, k_1, \ldots$ larni ketma-ket aniqlashdan iborat bo'lgan ushbu masalalarga ajraladi

$$u_{0tt} = \Delta u_0 + \int_0^t k_0(\theta) u_0(x,z,t-\theta)\,d\theta, z \in (0,l), (x,t) \in \mathbb{R}^2_+. \tag{39}$$

$$u_0 \mid_{t=0} = 0, \qquad u_{0t} \mid_{t=0} = 0, \tag{40}$$

$$u_{0z} \mid_{z=0} = \delta(x)\delta'(t), \qquad u_{0z} \mid_{z=l} = 0, \tag{41}$$

$$u_0 \mid_{z=0} = f_0(x,t), \quad (x,t) \in \mathbb{R}^2_+; \tag{42}$$

$$u_{ntt} = \Delta u_n + \int_0^t \sum_{j=0}^{n} x^j k_j(\theta) u_{n-j}(x,z,t-\theta)\,d\theta, z \in (0,l), (x,t) \in \mathbb{R}^2_+, \tag{43}$$

$$u_n \mid_{t=0} = 0, \qquad u_{nt} \mid_{t=0} = 0, \tag{44}$$

$$u_{nz} \mid_{z=0} = 0, \qquad u_{nz} \mid_{z=l} = 0, \tag{45}$$

$$u_n \mid_{z=0} = f_n(x,t), \quad (x,t) \in \mathbb{R}^2_+, \quad n = 1,2,\ldots. \tag{46}$$

So'ngra (39)–(46) tenglamalarning har ikkala tomonini x^mga ko'paytirib, x bo'yicha minus cheksizlikdan plyus cheksizgacha bo'lgan oraliqda integrallab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$u_{nmtt} - u_{nmzz} = m(m-1)u_{n(m-2)} + + \int_0^t \sum_{j=0}^{n} k_j(\theta)\left[u_{(n-j)(m+j)}(z,t-\theta)\right]d\theta, t \in \mathbb{R},\ z \in (0,l).$$

Bu teglamada u_{nm} orqali u_n funksiyaning m - momenti ifodalangan:

$$u_{nm}(z,t) := \int_{-\infty}^{\infty} u_n(x,z,t)\,x^m\,dx.$$

Ushbu paragrafning asosiy natijasi shundan iboratki, ixtiyoriy $T > 0$ son berilganda $k_0(t)$ va $k_1(t)$funksiyalarni $t \in [0,T]$ uchun $O(\varepsilon^2)$ tartibgacha aniqlikda ketma-ket topish usuli qurilgan. Buning uchun, $x$bo'yicha $f(x,t)$ funksiyaning $t \in [0,T]$lar uchun dastlabki ikki momentini berish kifoya. $k_0(t)$ funksiyani topish

masalasi Volterra tipidagi chiziqli bo‘lmagan integral tenglamalar sistemasini, $k_1(t)$ funksiyanini topish masalasi chiziqli integral tenglamalar sistemasini yechishga keltiriladi.

17-Teorema. *Agar* $\tilde{f}(t) \in C^2[0,l]$, $\tilde{f}(+0) = 0$, $\tilde{f}'(+0) = 0$ *shartlar bajarilsa, ixtiyoriy tayin* $l > 0$ *da (39)–(42) teskari masalaning yagona yechimi* $k_0(t) \in C[0,2l]$ *mavjud bo‘ladi.*

18-Teorema. *Ushbu shartlar bajarilsin* $\tilde{f}(t) \in C^3(0,l)$, $\tilde{f}(+0) = 0$, $\tilde{f}'(+0) = 0$, $\tilde{f}_1(t) \in C^{IV}[0,2l]$, $\tilde{f}_1(0) = \tilde{f}_1'(0) = \tilde{f}_1''(0) = \tilde{f}_1'''(0) = 0$. *U holda ixtiyoriy tayin* $l > 0$ *da (43) – (46) teskari masalaning yagona yechimi mavjud bo‘ladi va* $k_1(t) \in C[0,2l]$, $u_{11}(z,t) \in C^2(D_2)$.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida $D := \{(t,x,z) : (t,x) \in \mathbb{R}^2,\ 0 < z < l\}$ sohada

$$u_{tt} = \Delta u + \int_0^t k(\tau,x)\Delta u(t-\tau,x,z)d\tau, \qquad (47)$$

tenglama quyidagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlar

$$u|_{t<0} \equiv 0, \qquad (48)$$

$$\left(\frac{\partial u}{\partial z} + \int_0^t k(\tau,x)\frac{\partial u}{\partial z}(t-\tau,x,z)d\tau\right)|_{z=0} = \delta(x)\delta'(t), \qquad (49)$$

$$\left(\frac{\partial u}{\partial z} + \int_0^t k(\tau,x)\frac{\partial u}{\partial z}(t-\tau,x,z)d\tau\right)|_{z=l} = 0, \qquad (50)$$

bilan qaralgan. Bu yerda $l > 0-$ tayin son.

Teskari masala quyidagicha qo‘yiladi: (47) tenglama integral hadi tarkibiga kiruvchi $k(t,x)$, $t > 0$, $x \in \mathbb{R}$ noma’lum yadroni (47) - (50) to‘g‘ri masalaning yechimiga oid quyidagi (47) - (50) ma’lumot bo‘yicha topish talab qilinadi:

$$u(t,x,0) = g(t,x),\ t > 0,\ x \in \mathbb{R}. \qquad (51)$$

$u_j(t,x,z)$, $j = 1,2,\ldots$ funksiyalarning x o‘zgaruvchi bo‘yicha Furye obrazlariga o‘tamiz:

